

Ergasheva Noila Olimjonovna

Termiz davlat pedagogika instituti magistranti

olimjonovnanoila04010310@gmail.com

O'QUVCHILARGA XALQ XUNARMANDCHILIK ISHLARNI O'RGATISHDA DO'PPICHILIK ISHLARINING O'RNI

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada yoshlarni milliy xunarmandchiligidan tarixi, uning yo'nalishlari, rivojlanish bosqichlari, tarmoqlari bilan tanishtirish, shuningdek, o'zbek milliy xalq xunarmandchiligi elementlaridan bo'lgan do'ppichilik ya'ni Surxondaryo vohasiga xos do'ppilarining tikilishi va o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Undan tashqari yoshlarimizning xunarmandchilik ustalarining munosib davomchilar bo'lish, yaratuvchanlikka, go'zallikka intilish, ichki kechinmalarini go'zal naqshlar yordamida milliy bosh kiyimlarga tushirishga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Xalq xunarmandchiligi, badiiy kashtachilik, pilta, to'ldirma do'ppi, iroqi gul, amaliy san'at, kashta choki, do'ppi jiyaklari.

ABSTRACT: In this article, we will introduce young people to the history of our national handicraft, its directions, stages of development, branches, as well as the unique aspects of hat making, which is one of the elements of Uzbek national folk handicraft, that is, the sewing of hats typical of the Surkhandarya oasis. illuminated. In addition, there is information about becoming worthy successors of the masters of crafts of our youth, striving for creativity, beauty, and using beautiful patterns to express their inner feelings in national headdresses.

Key words: folk craft, artistic embroidery, pilta, stuffed hat, Iraqi flower, practical art, embroidery stitch, hat lines.

Do'ppilar qadimdan o'zbek badiiy kashtachilik me'rosining ajralmas durdonasi va xalq amaliy san'atining o'ziga xos go'zal turlaridan biri hisoblanadi.

Do'ppilar qachon paydo bo'lganligi, uning ilk ijodkor haqida biror-bir aniq ma'lumot yo'q. Faqat eramizdan ming yilla avval Ahamoniylar davrida O'rta Osiyoda Sakatigraxuada degan qabila yashaganligi va bu atama tepasi cho'nqaygan bosh kiyim kiygan saklar degan ma'noni bildirganligi haqidagi tarixiy ma'lumotlarga duch kelamiz.

Demak, do'ppilar juda qadimgi bosh kiyimlardan biri ekan.

Shunday qilib do'ppi nafaqat bosh kiyim vazifasida havoning issiq kunlaridan quyoshdan kelayotgan turli nurlardan saqlash, kunning sovuq qismida esa boshni issiq saqlash vazifasini ham va bundan tashqari aynan Surxondaryo hududlarida salsa ya'ni (do'ppini qo'shimcha mato o'rab boshga kiyish) erkaklarda keng tarqalgan bo'lsa, ayollarda esa yuqori qismi ochiq yopiq ko'p qavatli matolar o'ralgan bosh deb ataluvchi silindr ko'rininshdagi bosh kiyim kiyishgan va bu bosh kiyimlardan qo'shimcha cho'ntak vazifasida ham foydalanishgan va o'zlarining zarur buyumlarini u joyda olib yurishgan. Shunday qilib surxondaryo ayollarining bosh kiyimi ularning yoshi, ijtimoiy xolati va qabilasiga mansub xolda farqlangan .



Bunday shaklga yaqin bosh kiyim turlari yaqingacha saqlanib qolgan. Bunga misol qilib tepasi uchli Buxoro do‘ppilarini, tepasi cho‘zinchoq Shahrisabz gilam do‘ppilarini, Xorazmda keng tarqalgan Xorazm takyalarini ularning takomillashgan turlari deb atashimiz mumkin.

XIX asrning boshlarigacha do‘ppilarning shakli konussimon uchli bo‘lgan. Jiyak va kizaklari keng bo‘lgan. Do‘ppilarning shakli keyinchalik to‘rtburchak va dumaloq bo‘lib o‘zgargan, jiyaklari ingichkaroq qilib tikila boshlangan. Do‘ppilar qadimdan ayrim yetnik guruhlarning didiga va iqlimiylar sharoitga ko‘ra turli matolardan o‘ziga xos texnologik asoslarda tayyorlanib kelingan.

XIX asrning oxiri va XX asrda o‘zbek do‘ppilarini ancha takomillashgan.

Boysun va Oltinsoy tumanlarida juda qadimdan iroqi nusxa do‘ppilar tayyorlanib kelingan. Bunday do‘ppilarga iroqi gul tikish usullarining, asosan, „sanama“, „bosma“ chok xillari ishlatiladi. Do‘ppilarga maxsus jiyaklar qadalib, bezak beriladi. Do‘ppilarga ishlatiladigan jiyaklar xam maxsus uskunlarda to‘qilgan. Ushbu do‘ppilar Qashqadaryo viloyatida ham tikiladi.

Do‘ppilarning ko‘rinishi (shakli) esa yarim konussimon bo‘ladi. O‘ziga xos tayyorlanish texnologiyasiga ega bo‘lgan bunday do‘ppi-larni deb ataydilar. Tosh-kentda esa bunday do‘ppilar „gilamdo‘ppi“ deyiladi.

Surxondaryoda „iroqi“ do‘ppilardan tashqari „piltado‘zi“, yoki „to‘ldirma“ deb nomlangan do‘ppilar keng iste’mol-da bo‘lgan. Bu do‘ppilarning Surxondaryo vohasiga xosligi ko‘proq sariq rangli iplardan foydalaniladi.

Bunday do‘ppilarni tayyorlashda „piltado‘zi“ usuli qo‘llanilgan. Piltalarga, asosan, qog‘oz ishlatilgan. Do‘ppining piltalari bo‘ylab „tekis“ va „ilmoq“ qo‘l kashta choki bilan gullar tikilib, ular „to‘ldirma do‘ppi“ deb atalgan. To‘ldirma do‘ppilar bilan birgalikda xalq boshidan tushirmay, sevib kiygan gilam do‘ppilar yoki „iroqi“ do‘ppilar ham keng iste’molda bo‘lgan. Bunday do‘ppilar kanvaga, bo‘z matoga, „bo‘ronboy“ deb nomlangan to‘r matoga „tagdo‘zi“ usulida „iroqi“ qo‘l kashta choki bilan kashta tikib tayyorlangan.

To‘ldirma do‘ppilar paxta, qog‘oz va ba’zan jun bilan piltalangan. Kizagining chetiga „yo‘rma“ usulida matoga tikib tayyorlangan enli va ingichka jiyaklar tikilgan. Jiyagining birlashgan joyiga

turli rangdagi ipaklardan tayyorlangan popuk qadab, bezak berilgan. Bunday do'ppilarning ko'rinishi dumaloq, tepasi konussimon, yassi bo'lgan.

Gullari ipak va paxta iplar bilan tikilgan.



Gilam do'ppilar, „iroqi" do'ppilarning ko'rinishi dumaloq, tepasi konussimon yassi yoki konussimon cho'nqaygan va ba'zilari gumbaz shaklida baland qilib tikilgan.

Tepasi cho'nqaygan do'ppilarning kizagi ham enli bo'lgan. Bunday do'ppilarga gul tikishda „tagdo'zi" texnikasi ishlatilgan, kashta chokining „iroqi", „sanama iroqi", „ilmoq" xillaridan foydalanilgan. Do'ppilarning kizagiga matoga „ilmoq" choki bilan tikib tayyorlangan jiyaklar qadalgan. Ba'zan jiyaklarning birlashgan joyiga turli rangdagi ipak iplar bilan tayyorlangan popuk qadalgan.

XIX asrning boshlarida kuloxlar - kizagi chuqur, dumaloq, tepasi gumbazga o'xshash yoki konussimon baland bosh kiyimi ham iste'molda bo'lgan. Ko'pincha, bunday kuloxlarning avrasiga ham Shahrisabz gilam do'ppilar kabi „tagdo'zi" usulida "iroqi", "ilmoq" choklari bilan rangli ipak va paxta iplar bilan gul tikilgan. Kashta nusxalari orqali tepe qismlari to'rt bo'lakka ajratilgan. Astari satin, chit va bo'zdan bo'lib, piltalangan. Piltalariga paxta, qog'oz va qo'y juni ham ishlatilgan.

XIX asrning o'rtalariga kelib, ayollar uchun to'rtburchak shakldagi, uchburchak qatlanadigan „iroqi" do'ppilar ham keng iste'molga kirgan. Bunday do'ppilar „piltado'zi" usulida tayyorlangan. Piltasiga qog'oz ishlatilgan. Do'ppilarning tepasi ikkita diagonaliga joylashgan kashta yo'li orqali to'rt qismga ajratilgan. To'rtala tomoniga bir xil gullar tikilgan. Kashta gullari turli rangli ipaklar bilan tikilgan.

Ayollar kiyishiga mo'ljallangan, qimmatbaho matolardan tikilgan do'ppilar ham bo'lgan. Masalan, xitoy shoyisi (zarparang) dan tayyorlangan „zarparang qalpoq".

Bunday do'ppilarga chiroyli matolar tanlangan. Ular „piltado'zi" usulida tayyorlangan.

Pulta yo'llari mashina chokida tikilgan. do'ppilar, asosan, qog'oz bilan piltalangan

Hozirgi kunda yoshlarimizga xunarmandchilik sirlarini o'rgatishning axamiyati katta. Avvalambor momolarimizdan qolgan beba ho meroslarimizni saqlab qolish ularni kelajak avlodlarimizga ya'ni yoshlarimizga yetkazishdir. Ularga kashtachtlik, quroqchilik, do'ppichilik

sirlarini o‘rganish orqali ularda ijodkorlik qobiliyatları, estetik tarbiya ruhini shakllantiradi. Shu bilan bir qatorda do‘ppi uchun naqsh tanlash uni tikishga katta sabr-toqat talab etiladi.bugungi kunning dolzARB muammolaridan biri yo‘qolib ketayotgan urf-odatlarimizni asl qadr qiymatini saqlagan xolda yosh avlodga yitqazish va shu sohaga yanada qiziqish va qamrovni oshirishni samarali tashkil etish.

Do‘ppichilik ishlarini o‘rganish orqali o’quvchilarda quyidagi ko‘nikma va malaka shakllanadi:

- 1.Do‘ppi uchun o‘lchov olish.
- 2.O‘ziga xos naqshlar yaratish.
- 3.Geometrik naqshlar chizishni o‘rganish.
- 4.Naqshlarni tikish uchun ranglarni tanlab olish.
- 5.Naqshlarni tikishda tabiiy iplardan foydalanishning axamiyatini o‘rganish.
- 6.Tayyor do‘ppiga bezaklar(popuklar,jiyaklar,munchoqlar) tanlash
- 7.O‘z ichki dunyolarini ranglar orqali ifoda etish

Umuman olganda, yurtimizning xar bir jabhasida xunarmANDchilik ishlari rivojlanib bormoqda va har biri o‘ziga xosligi bilan bir-biridan ajralib turadi. Bundan tashqari avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan meroslarimizni asrab-avaylash, takomillashtirish va davom ettirish kabi ma’suliyat bugungi dolzARB va muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanimanligan adabiyotlar:

1. Axmetova A.S., Ismatullaeva M.Z. Xalq xunarmANDchiligi.-T.: «Iqtisod-Moliya» 2008.-292 b.
2. Bulatov S. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati.-T.: «Mehnat» 1991.-382 b.
3. Golovin N.N. Kustarno‘e promo‘slo‘ Turkistana.-T.: 1999.-98 b.
4. Zasipkin P.Sh. Mastera uzbekskogo zodchestva.-T.: 1967.-132 s.